

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"



"KELISHILDI"



Re'zha qabulindi: MD-5A111101-2.01

2018 - yil "18" 08

MUSIQA PEDAGOGIKASI  
FANI DASTURI

Bilim sohasi	100 000	- Gumanitar
Ta'lim sohasi	110 000	- Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	5A111101	- Musiqa ta'limi va san'at

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" 08 dagi 744 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchi:

Q.B.Panjiyev - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Musiqqa ta'limi" kafedrasini mudiri, san'atshunoslik fanlari nomzodi

#### Taqrizchilar:

E.Azimov - O'zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi  
M.Bakirova - Chilonzor pedagogika kolleji "Xonandalik" fani o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan. (2018 - yil 28 06 dagi 11 - sonli bayonnomasi).



13. Ўзбек педагогика антологияси. Т., Ўқитувчи, 1995.
14. К.Хошимов, С.Нишонова Педагогика тарихи.Т., А.Навоний номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриети, 2005

#### Internet saytlari

15. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
16. [tdpu-INTRANET. Pcd.](http://tdpu-INTRANET.Pcd)
17. [www. Ziyonet. uz](http://www. Ziyonet. uz)
18. [www. Edu. uz](http://www. Edu. uz)

## I.O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dasturda fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad, fanning vazifalari, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ish mazmuni, fanni o'qitish metodlari va shakllari yuzasidan tavsiyalar bayon qilindi. Dastur musiqa pedagogikasi ta'limning nazariy, ilmiy–metodologik asoslari, uning maqsad va vazifalari, mazmuni va shakllari, metod va texnologiyalarini qamrab olgan. Xalqimizning tarixi, o'tmish madaniyatimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash, merosimizni yanada boyitish borasidagi harakatlar, yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor, ayniqsa, kadrlar tayyorlash borasidagi tub o'zgarishlar shular jumlasidandir. Bu kabi ishlarni amalga oshirishdan maqsad mamlakatimizning dunyo jamiyati orasida o'z o'rni va mavqegini tarkib toptirish, O'zbekistonning o'z qadr-qimmatini va uning dunyo madaniyati va tsivilizatsiyasida qilgan xizmati, o'z o'rni belgilashdan iboratdir.

## II.O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi – bo'lajak magistrga musiqiy – pedagogik ta'limning ilmiy va metodologik asoslari, nazariyasi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni va texnologiyalari haqida bilim berish, shuningdek olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda qo'llash tajribasini shakllantirishdan iborat.

- O'quv fanining vazifalari: musiqiy – pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti, ilmiy va metodologik asoslari,

- O'zbekiston Respublikasida uzluksiz musiqiy – pedagogik ta'lim tizimi, musiqiy – pedagogik ta'limning zamonaviy kontseptsiyasi (oliy musiqiy – pedagogik ta'limning maqsad, vazifalari, mazmuni va yetakchi tamoyillari) va uning texnologiyalari, shakl va metodlari haqida bilimlar berish va hk.

- Musiqiy – pedagogik ta'lim tarixi va nazariyasiga oid bilimlarni kelgusi amaliy faoliyatda qo'llash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Magistr:**

- O'zbekiston Respublikasida uzluksiz musiqa pedagogikasi ta'lim tizimi; umumiy musiqa ta'limi, san'at nazariyasi va metodologiyasi sohasida mutaxassis tayyorlashga zamonaviy talablar;

- Musiqa ta'limi va san'at nazariyasi va metodologiyasi maqsadi, vazifalari, tamoyillari va mazmuni;

- Musiqa ta'limi va san'at nazariyasining metodologik va ilmiy asoslari haqida *bilimga;*

- Musiqa ta'limi va san'at nazariyasi va metodologiya amaliyoti;

- Musiqa ta'limi va san'at nazariyasi, metodologiyasini tashkil qilishning shakli, metod va texnologiyalari;
- Musiqa san'ati pedagogikasi ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni realizatsiyalashning o'ziga xosligini bilish *ko'nikmasiga*;
- Musiqiy pedagogikasi va ta'lim nazariyasi sohasidagi fakt, hodisa, kontsepsiya, teoriya va ilmiy ishlanmalarini o'rganish, tahlil qilish va baholash;
- Musiqiy pedagogikasi nazariyasi, musiqiy-pedagogik ta'lim bo'yicha bilimlarni bilish, ilmiy, ilmiy-metodik va amaliy faoliyatda qo'llash;
- turli mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkiliy va amaliy metodik ta'minlash;
- maxsus ilmiy va metodik adabiyotni o'rganish;
- Musiqiy pedagogikasi ta'lim jarayonini ta'minlash uchun o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish *malakasini egallagan bo'lishi kerak*.

### **III. Asosiy ma'ruza qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **I-Modul. Musiqa pedagogikasi fanning ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni**

##### **I-mavzu. O'zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi**

Tarixiy davr va O'zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishiga qisqacha tavsif. Eng qadimgi davrlardan musiqiy tarbiyaning tur va shakllari: instinktli, tabiiy – amaliy, maishiy, marosim va b. feodal davrda musiqiy ta'lim va tarbiya turlari va shakllari: boshlang'ich maktablar, O'rta asrlar universitetlari: madrasalar, machit maktablari, maktablar. Sharq allomalarining musiqa ilmi rivojlanishiga IX – XVI asrlarda musiqa nazariyasi va musiqada shakllar borasida qo'shgan hissasi. Ibn Sino, Farobiy, Jomiy, Kavkabiy, Navoiy, Darvish Ali va b.), O'rta asrlar davri musiqa ta'limi: XVII-XIX va XX asr boshlarigacha davrda musiqa ta'limi, xalq musiqa pedagogikasi.

##### **2-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida musiqa pedagogikasi rivoji. XVI asrdan XIX asr boshlarigacha davrda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogika**

Musiqiy san'at, o'zbek professional musiqasi og'zakai an'alarining shakllanishi, xalq musiqiy ijodi, saroy musiqasi. Xalq musiqa pedagogikasi, xalq bayramlari, sayllari, musiqachi va akterlar ansambllari va truppalari, oilada musiqa tarbiyasi, maktab va madrasa ta'lim jarayonida musiqaning o'rni, xalq musiqachi – bastakorlari. Usto – shogird maktablarida musiqachini o'qitish sistemasi.

18. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda musiqa pedagogikasi.

19. Navoiy – musiqashunos. Uning milliy musiqa san'ati rivojlanishiga qarashlari.

20. XX asrning 20 – 80- yillarida O'zbekistonda musiqiy ta'lim va tarbiya.

21. Yunus Rajabiyning hayoti va faoliyati, musiqa ta'limi rivojlanishidagi hissasi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. [www.Completevocalinstitute.com](http://www.Completevocalinstitute.com)
2. American popular music. Larri Star & CHristopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
3. Аскарлов А. Ўзбекситон халкларининг тарихи. 2- т. Т., Ўқитувчи, 1993.
4. Иброҳимов О.А. «Ўзбек халқ мусиқа ижоди» (методик тавсиялар И кисм), Тошкент, 1994 й. – 62 б.
5. Ибрхимов О.А. Маком ва макон. Мовароуннахр, Тошкент, 1996 й. 96 б.

### Qo'shimcha adabiyotlar

6. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11

7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. тошкент “Ўзбекистон” – 2017й.

8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.

9. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт таракқиети ва халқ фаравонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.

10. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 1-илова: “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 8 февраль сони ва Интернет ресурс: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2017.

12. Хасанбоева О., Хасанбоев Ж., Хамидов К. Педагогика тарихи. Т., Ё.Ғулум, 2004.

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- nazariy material bo'yicha misol va masala yechish,
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

Magistrantga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi va o'xshash misollar yordamida tekshiriladi.

Mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha davrda O'zbekistonda musiqa pedagogikasining rivojlanishi.
2. XVI asrdan to XIX asr boshlarigacha davrda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogikaning rivojlanishi.
3. XIX - XX asrlarda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogikaning rivojlanishi.
4. XX asrning 50 -80- yillarida O'zbekistonda musiqiy ta'lim va musiqa pedagogikasi.
5. Mustaqillik davrida O'zbekiston musiqiy ta'lim va musiqa pedagogikasi.
6. Xorijda musiqiy – pedagogik ta'lim va musiqa pedagogikasining o'rni.
7. Pedagogika sohasida kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi, kadrlar tayyorlashda musiqiy tarbiyaning zamonaviy tizimlari.
8. O'zbekistonda musiqa sohasida pedagog kadrlar tayyorlash: muammo va yechimlar..
9. Mustaqillik yillarida musiqa sohasiga bo'lgan e'tibor. Ilmiy tadqiqotlarda yangicha yondashuv.
10. Eramizdan oldingi IV asrda O'rta Osiyoda musiqa san'atining rivojlanishi.
11. IX – XII asrlarda musiqa pedagogikasining rivojlanishi.
12. Temuriylar davri madaniyatida musiqa va pedagogika.
13. Jomiy va Navoiy ijodida musiqa.
14. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida musiqa ta'limi rivojiga hissa qo'shgan olimlar.
15. XI – XV asrlarda musiqa madaniyati va ma'naviyat rivojiga hissa qo'shgan olimlar asarlari.
16. Buyuk mutafakkir Forobiyning musiqa pedagogikasining shakllanishidagi o'mi.
17. XVI asrdan XIX asrning 1 – yarmigacha o'zbek xalqining madaniyati rivojlanishi.



### **3-mavzu. XIX - XX asrlarda O'zbekistonda musiqiy madaniyat, san'at va pedagogikaning rivojlanishi**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbekistonda tarqalgan turli yangi g'oyalar, ijtimoiy – siyosiy harakatlar, oqimlarning musiqiy madaniyat va pedagogika rivojiga ta'siri. Jadidlarning yangi usul maktablarini yaratishdagi roli, ularning ma'naviy – ma'rifiy va madaniy faoliyati. Ilg'or ziyolilarning musiqiy ta'lim va tarbiya sohasidagi faoliyati: Abdurauf Fitrat, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy. Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobi. Buyuk o'zbek musiqachilari: domla Halim Ibodov, A.Abdurasulov, mulla To'ychi Toshmuxamedov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy va boshqalarning musiqa san'ati va musiqa ta'limi rivojiga hisssasi.

### **2-Modul. Musiqa pedagogikasi fanining metodologiyasi**

#### **4-mavzu. Musiqa pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrida odamlar tabiat inom etgan tayyor mahsulotlardan juda unumli foydalanishgan. Dastlab, turli meva va sabzavotlarni iste'mol qilib kun ko'rishgan bo'lsada, keyinchalik go'sht mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoji ortib bordi. Bu yashash uchun kurash odamlarga ovchilik, keyinchalik esa dehqonchilik, chorvochilik, undan keyin esa hunarmandchilikning turli-tuman ko'rinishlarini rivojlanishiga olib keldi. Mazkur rivojlanishlar odamlarning mehnat tajribasini shakllantirdi, rivojlantirdi. "Pedagogika" atamasi. Musiqa pedagogikasi ob'ekti.

#### **5-mavzu. Musiqa pedagogikasi jarayonining o'ziga xos xususiyatlari**

Musiqa pedagogikasi jarayoni murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning mohiyati musiqa mutaxassislari hisoblangan o'quvchi yoshlarni har jihatdan sog'lom va baqquvat, musiqaning u yoki bu turi bo'yicha o'zining ijrochilik qobiliyati va unga tayorgarligini muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash bo'yicha o'qituvchi-murabbiylarning maqsadli tashkiliy va ta'lim-tarbiyaviy faoliyati bilan belgilanadi.

Musiqa pedagogikasi jarayon – o'qituvchi va murabbiy-o'quvchilarning ikki tomonlama faol faoliyati.

#### **6-mavzu. Musiqa pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari**

Har qanday fan o'zining ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlar orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Musiqa pedagogikasi fani ham bundan mustasno emas. U o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlar bilan o'rganadi. Pedagogik kuzatish metodi. Suhbat metodi. Musiqa ijrochisining amaliy faoliyatini o'rganish metodi. Test-so'rovnoma metodi.

Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik eksperiment metodi. Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi. Matematika va kibernetika metodi.

#### **7-mavzu. Musiqiy didaktika ta'limi**

##### **Ta'lim jarayonining mohiyati, mazmuni va umumiy tavsifi**

O'quvchi-talabalarga ta'lim berish jarayonining pedagogik mohiyatini musiqa pedagogikasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy didaktik ta'lim o'rganadi. Talabalar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq etar ekan, didaktika uning printsiplari, shakl va metodlari, moddiy-texnikaviy vositalari va shu kabilarni belgilaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni hal etish davomida musiqiy didaktik ta'limoti o'quvchi, talaba-yoshlarning ta'lim olish jarayonining metodik tizimida o'z aksini topuvchi nazariy modelni tuzadi. Musiqa pedagogikasi ta'limining aniq (xususiy) metodikasi sifatida musiqiy didaktik ta'limi unga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

#### **8-mavzu. Musiqa pedagogikasini ta'limi jarayonining asosiy printsiplari**

Ta'lim printsiplari yoki didaktik printsiplar, deb musiqiy-pedagogik jarayonning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi pedagogik qoidalar tushuniladi. Ushbu qoidalar ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'yicha o'qituvchi faoliyatini belgilaydi. Bu printsiplarda ta'lim jarayoni qonuniyatlari, uning mantiqi va qarama-qarshiliklarining talablari aks etadi. Har bir printsipl ta'lim jarayonining alohida tomonlarini, ularning aniq talablarini yoritib beruvchi qoidalarni o'z ichiga oladi va ularning qo'llanilishi o'qituvchi-pedagogning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan umumiy munosabatini belgilaydi. Ta'limning ilmiyligi printsiplari. O'quvchi yoshlar va musiqa ijrochilarni ijrochilik mahorati uning va ruhiy tayyorgarligini ta'minlashning izchillik printsiplari. O'quvchi-talaba yoshlarning ongliligi va faolligi printsiplari. Ta'limda ko'rgazmalilik printsiplari. Ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik va izchillik printsiplari. Ta'limning tushunarlilik printsiplari. Bilim va ko'nikma xamda malaka tajribalarning puxtaligi printsiplari. Ta'limda jamoa bo'lib va yakka tartibda yondashish printsiplari.

#### **9-mavzu. Musiqiy-pedagogik ta'lim jarayoni**

Musiqiy – pedagogik ta'lim jarayoni va uning o'ziga xosligi. Musiqiy – pedagogik ta'limning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Musiqa – pedagogika ixtisosligi talabasi shaxsini rivojlantirish vazifalari. o'qituvchining musiqiy ta'lim jarayonini tashkil qilish faoliyati.

## **10-mavzu. Musiqa pedagogiksi ta'limning shakl va metodlari**

Musiqiy – pedagogik ta'lim jarayonida faoliyat turlari, shakl va metodlari. O'quvchi shaxsini rivojlantirish vazifalari va pedagogning musiqiy ta'lim jarayonini tashkil qilish bo'yicha faoliyati. Zamonaviy musiqiy pedagogikaning texnologiya va metodlari. Musiqiy fanlarni o'qitishda tamkorlik pedagogikasi tamoyillarini realizatsiyalash. Pedagogning o'quvchilar bilish faolligini musiqiy – pedagogik ta'lim jarayonida motivatsiya bilan birgalikda shakllantirish bo'yicha ishlar tizimi.

### **IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yich ko'rsatma va tavsiyalar**

- 1.Oliy musiqiy – pedagogik ma'lumotli mutaxissising zamonaviy modeli.
- 2.Musiqa pedagogikasi ta'lim jarayonining o'ziga xosligi.
- 3.Musiqa pedagogiksi ta'limda o'qitish jarayoni texnologiyalari, shakl va metodlari.
- 4.Musiqiy ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish muammolari va o'ziga xosligi.
- 5.O'zbekiston Respublikasida musiqa pedagogikasi ta'limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
- 6.Musiqiy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.
- 7.DTS, me'yoriy va metodik hujjatlar tahlili.
- 8.Musiqa pedagogikasi o'qituvchisi o'quv – metodik ishlarini rejalashtirish.
- 9.Musiqa pedagogikasi sohasi o'qituvchisini ilmiy – metodik ishlarni rejalashtirish.
- 10.Musiqa pedagogikasi ta'lim jarayonida musiqa pedagogikasining texnologiyalaridan foydalanish.
- 11.Musiqa pedagogikasi fakulteti o'qituvchisi ilmiy – metodik ishlarini rejalashtirish.
- 12.Musiqa pedagogikasi ta'lim jarayoniga rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy qilish.
- 13.Muammoli o'qitish texnologiyalarini joriy qilish.
- 14.Musiqa pedagogikasi ta'limda o'yin texnologiyalari joriy qilish.
- 15.Musiqa pedagogikasi jarayonida interfaol texnologiyalar.
- 16.Musiqa pedagogikasi ta'limda axborot texnologiyalari joriy qilish.

### **V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Magistrant mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;